

O'ZBEK KINOSI: AN'ANADAN RAQAMLI DAVR SARI – MILLIY EKRAN SAN'ATINING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Murodullayeva Zaxro Dilshod qizi
O'zDJTU, Sharq filologiyasi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbek kinosining tarixiy shakllanish jarayoni, mustaqillikdan keyingi bosqichda yuz bergan o'zgarishlar, zamonaviy kino san'atining rivojlanish omillari hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy kino sanoatini rivojlantirish istiqbollari, xorijiy tajriba asosida taklif etiladigan yechimlar haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kino, milliy kino, rejissyor, ssenariy, raqamli davr, kinematografiya, Netflix, Sevimli Play, restravatsiya, syujet, melodrama.

Abstract. This article analyzes the historical formation process of Uzbek cinema, the changes that occurred during the post-independence stage, the development factors of modern cinematography, and existing challenges. Furthermore, it discusses the prospects for developing the national film industry and proposes solutions based on international experience.

Keywords: cinema, national cinema, director, screenplay, digital age, cinematography, Netflix, Sevimli Play, restoration, plot, melodrama.

Аннотация. В данной статье анализируются исторический процесс формирования узбекского кино, изменения, произошедшие на этапе после обретения независимости, факторы развития современного киноискусства и существующие проблемы. Также рассматриваются перспективы развития национальной киноиндустрии и предлагаются решения, основанные на зарубежном опыте.

Ключевые слова: кино, национальное кино, режиссер, сценарий, цифровая эра, кинематография, Netflix, Sevimli Play, реставрация, сюжет, мелодрама.

Kirish. Kino – bu zamonning ko'zgusi, xalqning tarixi, ma'naviyati va orzularini aks ettiruvchi san'at turi. O'zbek kinosi ham o'zining boy an'analari, iste'dodli ijodkorlari va serqirra mavzulari bilan jahon kinosi sahnasida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. XX asrning o'rtalaridan boshlab „O'zbekfilm“ kinostudiyasi faoliyati milliy kino san'atining shakllanishida muhim rol o'ynadi. „Mahallada duv-duv gap“, „Kelinlar qo'zg'aloni“, „To'ylar muborak“, „Suyunchi“, „Abdullajon“ kabi filmlar nafaqat o'z davrining balki, bugungi kun tomoshilarining ham qalbini xushnud etadi. Mustaqillikdan so'ng esa o'zbek kinosida yangi bosqich boshlandi – milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, yoshlar hayoti, zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar yangi yo'sinda yoritila boshladi. Bugungi kunda esa kino raqamli texnologiyalar, global axborot oqimi va ijodiy erkinlik davriga kirgan. Shu bois, o'zbek kinosining bugungi holatini tahlil qilish, uning muammolari va istiqbollari aniqlash – ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism. O'zbek kinosining tarixi XX asr boshlariga borib taqaladi. 1925-yilda „O'zbek Davlat Kinostudiyasi“ tashkil etilishi bilan milliy kinematografiya uchun asos yaratildi. Dastlabki filmlar asosan hujjatli va targ'ibot mazmunida bo'lib, ular xalqni ma'rifatga, mehnatga va birlikka da'vat etgan. Aslida, o'zbek kinosining rivojlanishida badiiy asarlarning o'rni katta: „Shaytanat“, „Alisher Navoiy“, „O'tkan

kunlar“, „Kelinlar qo'zg'loni“, „Shum bola“. Ushbu asarlarni kinolashtirish nafaqat kinematografiya uchun, balki badiiyatni o'quvchiga aniqroq anglashiga yordam berdi. Aynan shu davrda milliy kino o'z uslubi, obrazlar tizimi va estetik yo'nalishlarini shakllantirdi. 1991-yildan so'ng kino sohasida erkinlik va ijodiy yangilanish boshlandi. Rejissyorlar endi ijtimoiy mavzularni erkin yoritish, yangi janrlar-detektiv, melodrama, komediya, tarixiy film yo'nalishlarini sinab ko'rish imkoniga ega bo'lishdi. Bu davrda “O'zbekkino” agentligi tashkil etilib, kino sohasini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Shuningdek, “Sharq taronalari” va “Toshkent Xalqaro kinofestivali” kabi tadbirlar yosh ijodkorlar uchun katta maydon yaratdi. Mustaqillik davri kinolari - “Sarvinoz”, “Baron”, “O'g'ri”, “Suyunchi”, “Erk”, “Islomxo'ja” singari filmlar - jamiyatdagi dolzarb muammolarni yoritdi. Bu davrning eng muhim xususiyati - kino milliy o'zlikni anglash vositasiga aylangani bo'ldi.

Bugungi kunda O'zbekiston kinosi raqamli texnologiyalar va ijodiy erkinlik sharoitida rivojlanmoqda. Mustaqil kinostudiyalar, yosh rejissyorlar va yangi platformalar (“Kinoteatr.uz”, “Sevimli Play”) kino bozoriga yangicha ruh olib keldi.

Endilikda film tomoshabin bilan faqat kinoteatrlarda emas, balki internet orqali ham uchrashmoqda. Yoshlar orasida qisqa metrajli, hujjatli va ijtimoiy yo'nalishdagi filmlar mashhurlashmoqda. Ba'zi o'zbek filmlari xalqaro festivallarda g'olib bo'lmoqda. Bu esa milliy kino imkoniyatlarining kengligidan dalolat beradi.

Shu kunlarda o'zbek filmlarining soni ortmoqda, ammo ayrim hollarda ularning mazmuniy salmog'i biroz yengillashgani seziladi. Ba'zi filmlar shaklan chiroyli, lekin mazmunan sayoz bo'lib, chuqur g'oyani yetkazishda ojiz qolmoqda. Natijada yoshlar orasida xorij kinolariga, ayniqsa, turk, koreys va g'arb filmlariga qiziqish kuchaymoqda.

Muammolar. So'nggi yillarda o'zbek kinolarining eng katta muammosi ssenariylarning yuzaki va mantiqsizligi. Hikoyalar qatlamsiz, voqealar ma'nosiz. Ko'plab rejissyorlar eski streatiplar va o'zlarining standart texnikalariga “yopishib” qolgan. Byudjetning yetishmasligi sahna, maxsus effektlar va vizual estetikani cheklaydi. Oqibatda film tomoshabinning ko'zida sust va zerikarli bo'lib qolmoqda. O'zbek kinolarida ko'proq melodrama va komediya ustun, boshqa janrlar esa deyarli mavjud emas.

Bundan tashqari, o'zbek kinosida takroriylik muammosi ham yaqqol sezilmoqda. Bir xil syujet, bir xil obrazlar va deyarli o'xshash yakunlar tomoshabinni zeriktirib qo'ymoqda. Go'yoki ayrim filmlar bir-birining nusxasidek tuyuladi - faqat aktyorlar o'zgargan, xolos.

Yana bir muammo - sun'iy drammatizatsiya. Ba'zi filmlarda voqealar tabiiy rivojlanmaydi, balki majburan “yig'latish” yoki “kuldirish” uchun cho'ziladi. Bu esa tomoshabinning ishonchini susaytiradi. Chunki zamonaviy tomoshabin oddiy syujet emas, balki mantiq va chuqurlik izlaydi. Andrei Tarkovsky bejizga “San'at insonni bezovta qilishi kerak” – deya aytmagan.

Yechim va istiqbollar. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, ssenariy masalasiga jiddiy yondashish zarur. Kuchli kino - bu, eng avvalo, kuchli g'oya va puxta yozilgan hikoyadir. Shunday ekan, ssenaristlarni tayyorlash, ularni qo'llab-quvvatlash va original g'oyalarga yo'l ochish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, kino sohasida tajriba va yangiliklardan qo'rqmaslik kerak. Yangi janrlar, noodatiy yondashuvlar va zamonaviy uslublarni sinab ko'rish milliy kinoni bir joyda turib qolishdan saqlaydi. Axir bugungi tomoshabin allaqachon global kontent bilan tanish - uni oddiy syujetlar bilan hayratlantirish qiyin.

Xorijiy tajribani o'rganish ham muhim omillardan biridir. Biroq bu ko'r-ko'rona taqlid emas, balki milliy ruhni saqlagan holda zamonaviy uslublarni uyg'unlashtirishni anglatadi.

Shuningdek, kino marketingiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Hatto yaxshi film ham to'g'ri targ'ibot bo'lmasa, o'z tomoshabinini topa olmaydi. Zamonaviy platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli vositalardan samarali foydalanish bu borada muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek kinosi katta tarix va ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan san'at turidir. U o'z yo'lini topishga harakat qilmoqda, ammo bu yo'l hali to'liq ravshan emas. Bugungi kunda kino faqat ko'ngilochar vosita emas, balki jamiyatning fikrlash tarzini shakllantiruvchi kuchli omildir. Shu sababli unga yengil qarash - bu aslida kelajak avlod didiga befarq qarash bilan barobar. Agar milliy kino haqiqatan ham rivojlanishni istasa, u tomoshabinni pastga tortmasligi, aksincha uni o'ylashga, his qilishga va anglashga majbur qilishi kerak. Zero, haqiqiy kino - bu shunchaki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki inson qalbida iz qoldira oladigan san'atdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev, N. (2018). O'zbek kino tarixi: An'anadan zamonaviylikka. Toshkent: Akademya nashri.
2. Mamatqulov, S. (2020). Milliy kino rivoji va raqamli texnologiyalar. O'zbekiston Madaniyati, 5(2), 45–57.
3. Karimov, A. & Tursunov, F. (2019). Ssenariy yozishning asosiy prinsiplari. Kinotexnologiya jurnal, 3(1), 22–35.
4. Sevimli Play. (2023). O'zbek filmlari platformasi haqida. <https://www.sevimli-play.uz>
5. Kinoteatr.uz. (2023). Milliy kino yangiliklari. <https://www.kinoteatr.uz>
6. Tarkovsky, A. (1989). Sinematografiya va san'at. Moskva: Iskusstvo.
7. Xalqaro festival ma'lumotlari: Toshkent Xalqaro kinofestivali (2022). Rasmiy sayt: <https://www.tashkinofest.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2021). Milliy kino sanoatini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.